

**YOSHLAR SIYOSATIDA SPORTNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Elguzarov Bekruz Bahrom o‘g‘li,**  
*University of Business and Science*  
*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizning “Oltin fondi” bo‘lgan yoshlarga shart-sharoitlar, tashabbuslar va jismoniy yetuk, barkamol bo‘lib yetishishida yaratilayotgan imkoniyatlar haqida gap boradi. Ayniqsa, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida katta e’tibor qaratilayotganligi, sportni rivojlantirishga oid muhim qarorlar va dasturlar ishlab chiqilganligi keng yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Harakatlar strategiyasi, Yoshlar ishlari agentligi, Olimpiada, Paralimpiada, yoshlar siyosati, yoshlar yetakchisi, besh tashabbus, konvensiya, videoselektor, qaror, O‘zbekiston-2030

**Abstract:** This article discusses the opportunities, conditions and initiatives being created to help our country's "Golden Fund" of young people become physically mature and well-rounded. In particular, it widely highlights the fact that great attention is paid to the development of physical education and sports at the state policy level in our country, and important decisions and programs have been developed for the development of sports.

**Keywords:** Strategy of Actions, Youth Affairs Agency, Olympics, Paralympics, youth policy, youth leader, five initiatives, convention, video selector, resolution, Uzbekistan-2030.

**Аннотация:** В статье рассматриваются возможности, условия и инициативы, которые создаются для того, чтобы помочь «золотому фонду» молодежи нашей страны вырасти физически зрелыми и всесторонне развитыми. В частности, широко сообщается, что развитию физической культуры и спорта в нашей стране уделяется большое внимание на уровне государственной политики, разработаны важные решения и программы по развитию спорта.

**Ключевые слова:** Стратегия действий, Агентство по делам молодежи, Олимпиада, Паралимпийские игры, молодежная политика, молодежный лидер, пять инициатив, конвенция, видеоселектор, резолюция, Узбекистан-2030.

Dunyo tajribasidan ma’lumki, har qanday rivojlangan davlatning taraqqiyoti, xalqining farovonligi va yutuqlari avvalo yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi hamda ularning kelajagiga qaratilgan e’tibor darajasiga bog‘liq. Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar

amalga oshirilmoqda. Bu yo‘lda jamiyatimizning eng faol qatlami bo‘lgan yoshlarning salohiyati muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va qulay sharoitlar buning yaqqol isbotidir. Shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asr ya’ni, axborot texnologiyalari asrida — yoshlarning ma’naviy va axloqiy dunyoqarashini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosat eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

2016-yil 14-sentabrdagi davlatimiz rahbarining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi imzolagan qonun hujjati ham, aholisining 60 foizdan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, sport bilan hamnafas, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin egallashida eng muhim omil ekanini anglatadi[2]. Shu maqsadda mamlakatimizda yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan[8].

2017-yil 19-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”[1]. Prezidentimizning ushbu nutqi dunyo miqyosida Yangi O‘zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar va e’tiborning qanchalik darajada muhim ekanligini belgilab berdi. Yurtboshimiz nafaqat o‘zbek yoshlari, balki butun dunyodagi 2 milliarddan ortiq yoshlarning huquqiy va ma’naviy dunyoqarashini bosh mavzu sifatida ilgari surdi hamda Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad diniy ekstrimiz va terorizm, buzg‘unchi va yot g‘oyalar ostidagi axborotlar almashinuvi jaryonidan yoshlarga himoya zaruriyatidir.

2020-yil 23-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi tarixiy nutqida Tashkilotga a’zo davlatlarni **Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga** chaqirdi. Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha tashabbus jahon miqyosida yoshlar huquqlariga doir muhim masalalarni o‘zida ifoda etgan xalqaro huquqiy hujjatni qabul qilishni nazarda tutuvchi ilk taklif ekanligi bilan ahamiyatlidir[8].

Ayniqsa, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da ham yoshlar asosiy bug‘in sifatida o‘rin egallagani mamlakatimiz yoshlari uchun muhim e’tibor bo‘ldi. Bundan ko‘zlagan asosiy maqsad nima? Maqsad yoshlarning ijodiy, ma’naviy va intellektual

salohiyatini ko‘chaytirish, sog‘lom fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama qo‘llab- quvvatlash, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini tadbiq qilish, ularni sportga keng jalb etish, jamiyatda yoshlarning rolini yanada oshirish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishdan iborat.

Bu borada 2019-yil 19-mart kuni muhtaram Yurtboshimiz boshchiligidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yoshlарimizга bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlар o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish kabi masalalarga alohida urg‘u berildi. Ushbu yig‘ilishda “Besh tashabbus” olimpiadasini tashkil etish va uning nizomini ishlab chiqish vazifasi topshirildi. “Besh tashabbus” olimpiadasi O‘zbekistonda o‘tkaziladigan ommaviy sport musobaqlari, madaniy tadbirlar va turli tanlovlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur tadbir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlarni ommaviy sportga jalg qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qarorining 4-xatboshi “a” bandiga muvofiq har yili an’anaviy tarzda amalga oshiriladi[3]. “Besh tashabbus” olimpiadasi dasturi doirasidagi musobaqlar har yili bir marotaba mart-dekabr oylarida tashkil etiladi. Besh tashabbus olimpiadasida 26 ta loyihalarni o‘z ichiga oladi. Loyihalarning 13 tasi tanlovlar bo‘lsa, 13 tasini sport musobaqlari tashkil etadi. Olimpiada besh bosqichda o‘tkaziladi. Jumladan, olimpiada **mahalla, sektor, tuman (shahar), hududiy va respublika** bosqichlarida o‘tkaziladi. O‘zbekistonda yashovchi 14–30 yoshdagi barcha yoshlar ushbu loyihalarda ishtirok etishlari mumkin. 2023-yildan boshlab olimpiada umumta’lim maktablari, professional ta’lim muassasalari hamda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar o‘rtasida **alohida tartibda** o‘tkazila boshlandi. 2024-yildan korxona va tashkilotlarda faoliyat yurituvchi yoshlar o‘rtasida ham tashkil etiladi. 2023-yil 15-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida yoshlar bilan ishslash bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan ma’lumotga ko‘ra, 2023-yilda 12 millionga yaqin yoshlar turli loyihalarda ishtirok etgan. Ushbu jarayonda g‘olib bo‘lgan yoshlarning mahallalarida 623 ta sport maydonchasi barpo etilgan [4].

“Besh tashabbus” olimpiadasi 13 ta sport musobaqlari( yengil atletika, stol tennisi, vorkout, shaxmat, shashka, armleesting, gimnastrada, stritbol, futbol, voleybol, kurash, paralimpiada) 13 tanlovlar (kibersport turniri,yosh kitobxon, yosh kitobxon oila, mushoira, zakovat intellektual o‘yini, ibrat chet tillari, nonvoychilik, yosh quruvchi, dzaynerlik, elektromontaj ustasi, va payvandlash ustasi kasblar tanlovi) ni o‘zi ichiga oladi.

Ayrim sport turlari O‘zbekistondagi yetakchi tashkilotlarga biriktirib berilgan. Jumladan:*Kurash* — Bosh prokuror kubogi, *Voleybol* — Ichki ishlar vaziri kubogi,

*Futbol* — Davlat xavfsizlik xizmati kubogi, *Stol tennisi* — Davlat xavfsizlik xizmati kubogi doirasida tashkil etiladi. Mazkur sport tadbirlarini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda tegishli vazirlik va idoralarga yuklatilgan.

Bundan tashqari, yoshlar *beshtashabbus.uz* sayti orqali mustaqil ravishda ro‘yxatdan o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Besh tashabbus musobaqalari 6 yo‘nalish bo‘yicha tashkil etiladi.

1. Mahalla yoshlari-13 sport turi 5 bosqichda
2. Nogironligi bo‘lgan yoshlar- adaptiv sport turlari bo‘yicha 3 bosqichda
3. Maktab o‘quvchilari – 9 sport turi bo‘yicha 3 bosqichda
4. Kasbiy ta’lim muassasalari – 5 sport turi bo‘yicha 3 bosqichda
5. Talabalar – 5 sport turi bo‘yicha 4 bosqichda
6. Idora va tashkilot xodimlari – 5 sport turi bo‘yicha musobaqalar

Ayniqsa, Besh tashabbus olimpiadasi doirasidagi sport turlarini mahallalardagi yoshlar o‘rtasida keng tatbiq etish maqsadida va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda uyushmagan yoshlarni sportga jalg qilish maqsadida har bir mahallada Yoshlar yetakchisi lavozimini joriy etish bo‘yicha yurtboshimiz tomonidan PQ-92-sonli “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimni tubdan takomillashitrish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Qarorda Yoshlar yetakchilarning asosiy vazifalari belgilab berildi. Bosh vazifa mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish[6].

Besh tashabbus olimpiadasidan tashqari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida — “*Yosh chegarachi*”, “*Yosh qutqaruvchi*”, “*Quvnoq startlar*”, “*Temurbeklar*”, “*To‘maris malikalari*”, “*Shunqorlar*”, “*Yosh huquqshunos*”, “*Yosh saylovchi*”, “*Yosh deputat*” tanlovlari hamda “*Men ham askar bo‘laman*” aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etish yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida mamlatimizning chekka va olis hududlarida kopmleks asosida sport maydonchalari, kutubxona va musiqa maktablari foydalanishga topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizni dunyoga tez tanitadigan soha – bu sportdir. Sport millat va irq tanlamaydi, u barchani o‘z atrofida birlashtiradi. Sport nafaqat aholi salomatligini mustahkamlaydi, balki sog‘lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezonlaridan biridir. Sportchilarimiz yozgi Olimpiada va Paralimpiadada, Osiyo o‘yinlarida, shuningdek, sport turlari bo‘yicha jahon va mintaqa championatlarida yurtimiz bayrog‘ini yuqori pog‘onalarga ko‘tarib kelmoqda.

Islohotlar natijasida 2016-yilda Rio-de-Janeyroda, 2018-yilda Djakartada, 2021-yilda Parijda va 2023-yilda Xitoyda o‘tgan Olimpiada va Paralimpiadada boks, kurash, yengil va og‘ir atletika sport turlari bo‘yicha yuqori o‘rnlarni egallash beziz emas. Milliy terma jamoa a’zolari 50 ta xalqaro turnir va musobaqalarda, 49 ta Jahon va 26 ta Osiyo championatlarida ishtirok etib, jami 598 ta medal (193 ta oltin, 161 ta kumush, 244 ta bronza) qo‘lga kiritdilar.

Bunday natijalar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q, ular muhtaram Prezidentimiz tomonidan yoshlarga qaratilayotgan e’tibor va yaratilib berilayotgan imkoniyatlarning mevasi hisoblanadi. Bu mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida katta e’tibor qaratilayotganining natijasidir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida esa bu boradagi ishlarni kengaytirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar qamrovini oshirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Shavkat Mirziyoyev, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan.
2. Shernazarov Kh.S. Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati masalalari //“Экономика и социум” №2(93)- 2 2022.
3. <https://lex.uz/docs/-5950242>.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/6928>
5. <https://lyceum.tma.uz/besh-muhim-tashabbus/>
6. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5831865?ONDATE=01.01.2024%2000>
7. <https://parliament.gov.uz/articles/1860>.
8. [https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-huquqlari-togrisidagi-bmt-konvensiyasi-jahon-yoshlaring-huquq-va-manfaatlari-kafolati\\_197922](https://uza.uz/oz/posts/yoshlar-huquqlari-togrisidagi-bmt-konvensiyasi-jahon-yoshlaring-huquq-va-manfaatlari-kafolati_197922).